


## IX. KICHIK TADBIRKORLIK


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2024- yilning yanvar-mart oylarida 1 554 ta yangi kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etilib, faoliyat ko'rsatayotganlarning soni 37 179 taga yetdi.

2024- yil 1- aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 37 179 tani va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,1 % ni tashkil qildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi o'tgan yilning mos davriga solishtirilganda, ya'ni 4563 tasi (102,8 %) – Zangiota, 3378 tasi – (95,8 %) Qibray, 2 637 tasi – (91,1 %) Toshkent tumanlari hamda 2 449 tasi – (105,1 %) Chirchiq, 2051 tasi – (101,5 %) Angren shaharlari hissalariga to'g'ri keladi.




**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da**




2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 1 554 tani tashkil qilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 325 taga yoki 17,3 % ga kamaygan..


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar kesimida soni**  
(yanvar-mart oylarida, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining  
yillarkesimida o'rish dinamikasi**  
(yanvar-mart oylarida, %da)



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
2024- yil yanvar-mart oylarida (jamiga nisbatan %da)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning savdoda (37,8 %), sanoatda (20,4 %) sohalarida tashkil etilgan.

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotda yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 24 937,3 mlrd. so‘m tashkil qilib, ulushi 45,2 % (2023- yil yanvar-mart oylarida 45,9 %) tashkil qildi;

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 5 602,7 mlrd. so‘mni, ulushi 22,0 % (2023- yil yanvar-mart oylarida 23,5 %) tashkil qildi;

- qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 4 973,3 mlrd. so‘mni tashkil qilib, ulushi 91,9 % (2023- yil yanvar-mart oylarida 93,2 %) tashkil qildi;

- investitsiyalar hajmi 7 192,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, ulushi 52,2 % (2023- yil yanvar-mart oylarida 51,5 %) tashkil qildi;

- 2 898,2 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari bajarildi va ulushi 81,3 % (2023- yil yanvar-mart oylarida 82,0%) tashkil qildi;


- avtomobil transporti yuk aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 20,3 %ga ko‘paygan (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 55,1 %), yo‘lovchi aylanmasi esa 3,7 %ga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 96,9 %) ko‘paydi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 86,5 %ini yoki 5 803,5 mlrd. so‘mini kichik biznes korxonalarini shakllantirdi;

- xizmatlar umumiy hajmining 70,2 %i yoki 6 041,5 mlrd. so‘mi (o‘sish 111,9 %) kichik biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi;

- 142,2 mln. AQSh dollar miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport (ulushi 35,1 %) hamda 458,1 mln. AQSh dollar miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import (ulushi 59,0 %) qilindi.

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar)  
umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



**Kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning  
asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da**

	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Inves titsiya	Qurilish	Savdo	Xizmat	Eksport	Import
<b>Jami viloyat</b>	<b>22,0</b>	<b>91,9</b>	<b>52,2</b>	<b>81,3</b>	<b>86,5</b>	<b>70,2</b>	<b>35,1</b>	<b>59,0</b>
Nurafshon	20,8	99,9	30,5	94,8	73,1	44,2	90,5	84,0
Olmaliq	2,1	99,4	1,9	22,8	86,9	71,1	4,1	10,7
Angren	24,0	76,2	76,0	92,0	83,7	63,0	48,2	48,6
Bekobod	1,8	99,9	31,4	98,8	87,4	77,7	10,1	2,1
Ohangaron	22,7	99,9	73,1	75,6	90,1	78,1	60,8	61,9
Chirchiq	42,0	99,8	58,2	99,2	74,6	69,3	23,1	70,0
Yangiyo'l	64,1	97,5	61,9	100,0	92,4	83,9	97,6	100,0
<b>tumanlar:</b>								
Oqqo'rg'on	45,6	99,6	92,0	100,0	97,4	80,8	64,0	94,1
Ohangaron	16,3	87,8	74,8	94,8	89,4	75,6	18,9	14,5
Bekobod	55,7	99,3	78,2	89,2	95,8	75,7	98,8	100,0
Bo'stonliq	15,4	98,2	63,8	53,5	70,1	60,3	42,9	37,1
Bo'ka	33,1	99,4	79,4	98,0	89,5	80,4	99,9	100,0
Quyichirchiq	69,6	96,4	91,0	100,0	95,2	64,7	100,0	100,0
Zangiota	93,7	96,9	68,7	100,0	87,0	63,5	92,7	98,1
Yuqorichirchiq	81,8	94,8	99,2	97,7	85,7	82,0	93,3	91,9
Qibray	13,3	92,8	67,5	74,7	89,9	58,1	97,8	71,4
Parkent	94,1	97,1	87,8	99,4	94,6	81,3	77,5	95,9
Piskent	37,3	70,9	64,0	81,8	82,6	67,6	32,5	47,3
O'rta Chirchiq	37,9	83,9	72,7	94,0	95,7	79,6	68,5	82,8
Chinoz	87,3	99,0	84,0	100,0	89,3	59,8	71,6	37,5
Yangiyo'l	29,4	68,4	57,8	92,1	89,5	77,1	39,3	46,3
Toshkent	85,5	98,6	91,6	98,7	85,7	80,4	82,9	97,1